PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

TA’LIM JARAYONIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRUVCHI MASHQLAR TIZIMINI ISHLAB CHIQISH

Bekchanova Farida Adilbekovna
OXU 1-kurs magistr talabasi
Pedogogika va psixologiya kafedrasi 1-sho’ba
bekchanovafarida37@gmail.com
99 503 7717

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayonida bolalarda nutq madaniyatini hosil qilish, uni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar berilgan. Shu bilan birga, nutq madaniyatining ta’lim sohasida muhim ahamiyatga ega ekani xususida ma’lumotlar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: ta’lim jarayoni, nutq madaniyati, ritor, taqlid o‘yinlari, obekt qutisi

Abstract: This article presents a set of exercises aimed at developing and fostering speech culture in children within the educational process. It also provides information on the significant role and importance of speech culture in the field of education.

Аннотация: В данной статье представлены упражнения направлнные на формирование и развитие культуры речи у детей в процессе обучения. Одновременно приводится информация о важности культуры речи в образовательном процессе.

Hozirgi raqamli davrda innovatsiyalar rivojlanayotgan bir vaqtda ta’lim jarayoni muhim o‘rin tutadi. Ta’lim jarayoni juda ko‘p texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lishiga qaramasdan, nutq madaniyati asosiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki nutq aloqa, fikrlash va faoliyatni boshqarish vositasi bo‘lib, bolaning jamiyatga integratsiyasi, bilimlarni o‘zlashtirishi va shaxsiy rivojlanishi uchun asos hisoblanadi. Talabalar, o‘quvchilarda nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon o‘zlarining fikrini erkin bildirishi, tushuntirilayotgan yangi mavzuni yaxshi anglab yetishi uchun ayniqsa zarur hisoblanadi. Insoniyat yaralgandan boshlab to hozirgi vaqtgacha odamlarda nutq bosqichma bosqich rivojlanib kelgan. Bularga misollarni juda ko‘plab keltirish mumkin.

Qadim Yunonistonda demokratiya tuzumining o‘rnatilishi natijasi o‘laroq, xalq yig‘inlarida, senat kengashlarida davlat ishlarida, sud ishlarida mamlakatning har bir ozod kishisi erkin nutq so‘zlash huquqiga ega bo’lgan. Afinada eramizdan oldingi V asr o‘rtalarida notiqlik san’ati shakllangan bo‘lsa ham adabiy faoliyat o‘rnida qabul qilinmagan va u nutqlarning matnlari bosilmagan.

Bu san’atni ilk bor adabiy janr darajasiga ko‘targan hamda notiqlikka ilmiy yondoshgan kishilar sofistlar hisoblangan. Ular o‘zlaridan oldin o‘tgan notiqlaming faoliyatlarini nazariy asoslashga kirishib, “Ritorika” ilmini yaratdi. Oldin notiqlarni “Ritor” so‘zi bilan atashib, so‘ngra notiqlik san’atidan saboq o‘rgatuvchilarni “Ritor”lar deb ataganlar. [1]

Nutq bu-insonning boshqa bir inson bilan axborot almashinuvi, o‘zidagi fikrlarni boshqa birovga yetkaza olish hamda umumiy qilib aytadigan bo‘lsak eng muhim aloqa vositasi hisoblanadi. Nutq madaniyati-nutqning adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda, mantiq ilmiga asosan namoyon bo‘lishidir.

Nutqning asosini so‘zlar, so‘zlarning asosini esa harflar tashkil qiladi. Shunday ekan nutq to‘liq va ravon bo‘lishi uchun bolani kichik yoshidan boshlab uning harflarni to‘liq va to‘g‘ri talaffuz qilishiga e’tibor qaratish kerak. Bola dunyoga kelgandan bir necha oy o‘tib, bola tovush chiqara boshlaydi va yoki bo‘lmasa chaqaloqlarning yig‘isi eng soda nutq hisoblanadi. Bola bir yoshga kirganda esa bir nechta so‘zlarni aytishni biladi. Shundan so‘ng bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. Mana shu davr eng muhim davr hisoblanadi. Chunki bu vaqtda bolaning harflarni to‘g‘ri

talaffuz qilishiga e'tibor qaratish kerak. Hozirgi davrda ko'pchilik bolalar "R", "Ch", "S" tovushlarni aytishga qiynalishadi va noto'g'ri talaffuz qilishadi. Shu vaqtda ularni to'g'ri tomonga yo'naltirilsa, harflarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganishadi. Maktab davriga kelib, o'quvchilarning nutqni rivojlantiruvchi o'yinlarga, mashqlarga e'tibor qaratiladi. Maktab davrida nutqni rivojlantirishga yordam beradigan asosiy mashqlar bu tez aytishlar, maqollar, topishmoqlar hisoblanadi. Ularning ko'pchiligi xalq og'zaki ijodidan qolgan meroslardir. Bularga ba'zilarni misol qilib keltirsak bo'ladi.

1. Aytar so'zni ayt,
   Aytmas so'zdan qayt.
2. Haq so'zga o'lim yo'q.
3. Oz so'z-soz so'z.
4. Tilni bilish - dilni bilish.
5. Notiq mahmadona bo'lsa, majlisning burdi ketar.[2]

Tez aytishlar

1. Qopin qo'yib qorbobo
   Qo'lqopini qidirdi.
   Qorqiz qalin qalpog'in
   Qulog'iga qo'ndirdi.
2. Salima sumkasiga patirni soldi,
   Salima sumkasidan atirni oldi.
3. To'rtta topqir topaloq,
   Topishmoq topar quvnoq.
4. Uchuvchi suzuvchini uchratdimi,
   Suzuvchi uchuvchini uchratdimi?
5. Darsda Nasim rasm soldi,
   Nasim rasmga razm soldi. [3]

Bolalar uchun samarali nutqni rivojlantirish mashqlari interaktiv o'yinlar, o'qish, qo'shiq aytish, so'z boyligi va artikulyatsiyani oshirish uchun kundalik suhbatni o'z ichiga oladi. Asosiy faoliyatlar taqlid qilish, og'zaki motorni kuchaytirish (pufakchalarni puflash). Boshqa qiziqarli mashqlar qo'g'irchoqlar va ritmik o'yinlar bilan hikoya qilishni o'z ichiga oladi.

Erta bolalar davridagi nutq faoliyati (bolalar va maktabgacha yoshdagi bolalar):

Taqlid o'yinlari: Boshqaruvni yaxshilash uchun kulgili yuzlar yaratiladi, yonoqlar orqali puflanadi yoki oynada hayvonlarning tovushlari taqlid qilinadi.

Obyekt qutisi: Tanish narsalarni qutiga joylashtiriladi, ularni chiqarib olinadi va ularni tasvirlab beriladi. ("Bu ko'k mashina. U tez yuradi". Ovozli zinapoya : tovushni, keyin bo'g'inlarni, keyin so'zlarni va nihoyat jumlalarni mashq qildiriladi, masalan "s")

Pufakchalar va naychalar: pufakchalarni puflash va naychalar orqali aniq nutq uchun zarur bo'lgan lab va yonoq mushaklarini kuchaytirishga yordam beradi.

Ta'riflovchi o'yin: Yangi so'zlar va turli ovozlardan foydalanishni rag'batlantirib, hikoyalar yaratish uchun qo'g'irchoqlar yoki qo'g'irchoqlar kabi o'yinchoqlardan foydalaniladi.

Oynali suhbat: Muayyan tovushlar uchun og'iz harakatlarini kuzatish uchun oynadan foydalanish.

Qo'shiq aytish va qofiyalar: bolalar bog'chasi qofiyalari bolalarga tilning ritmi va tuzilishini o'rganishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi mashqlar nutni dastlabki rivojlantirishiga yordam beruvchi mashqlar hisoblanadi. Nutqning rivojlanishi ko'p tomonlarga bog'liq, atrof muhitga, yon atrofdagi insonlarga ya'ni jamiyatga, tovush hosil qilish organlarning rivojlanishiga ham bog'liqdir. Nutqning

to‘g‘ri va to‘liq rivojlanishi nutq madaniyatining yuksak rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Ta’lim jarayoni nutq madaniyati bilan bog‘liq hisoblanadi. Chunki ta’lim olayotgan talaba yoki o‘quvchi sifatli ta’lim olishi yoki o‘zidagi fikrlarni bayon qilishi uchun muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bekmirzoyev N. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. O‘quv qo‘llanma, Toshkent: Fan, 2007. 19-bet
2. Rasulov.R. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. O‘quv qo‘llanma, Toshkent: 2015. 81-bet
3. https://baxtiyor.uz/tez-aytishlar-to-plami-eng-sara-100-ta-tez-aytishlar/)